



## **XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMAN KENGASHINING QARORI**

2022 - yil 13 - iyul

VI-66-129-7-93-K/22

Bulung‘ur tuman hokimligi

### **Bulung‘ur tuman mahalliy budjetining 2022-yil xarajatlarini maqbullashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27, 30 va 147-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi “Budjetlararo munosabatlarni va soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-208-sonli qarori va bu boradagi O‘zbekiston Respublikasi Prezident Adminstratsiyasining 02-RA 1-8851-sonli ko‘rsatmasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozilgan qo‘shma axboroti hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2022-yil 29-iyundagi VI-66-138-7-0-K/22-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24–moddasiga muvofiq xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining oltinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi “Budjetlararo munosabatlarni va soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-208-sonli qarori va bu boradagi xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2022-yil 29-iyundagi VI-66-138-7-0-K/22-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini maqbullashtirish 1-ilovaga muvofiq ma‘qullansin.

3. Tuman moliya bo‘limi (J.Narziyev) tuman mahalliy budjetining 2022-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov), ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklansin.

**Kengash raisi**



**S.Astonov**

Xalq deputatlari Bulung'ur tuman  
Kengashining  
2022 yil 13 iyuldagi  
VI-66-129-7-93-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Tuman mahalliy budjetidan mablag' oluvchi hududiy budjet mablag'larini  
taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag'larini maqbullashtirish  
to'g'risida**

*ming.so'm*

<b>№</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Xarajat moddasi</b>	<b>Maqbullashtirishga taklif etilgan summa</b>
	<b>Jami</b>	<b>X</b>	<b>235 108,2</b>
1	Bulung'ur tumani hokimligi	44252110	3 287,0
2	Bulung'ur tuman hokimligi moliya bo'limi	14111100	31 100,0
3	Bulung'ur tuman hokimligi moliya bo'limi	24121100	7 800,0
4	Bulung'ur tuman Xalq ta'limi bo'limi	14111100	7 480,0
5	Bulung'ur tuman Xalq ta'limi bo'limi	24121100	1 851,0
6	Bulung'ur tuman Xalq ta'limi bo'limi	44354990	10 989,0
7	Bulung'ur tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi	44252110	10 002,0
8	Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	44233900	2 795,6
9	Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	44299990	8 000,0
10	Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	44354930	4 000,0
11	Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	44252110	12 069,7
12	Bulung'ur tuman Sog'liqni saqlash bo'limi	44252300	28 059,2
13	Bulung'ur tuman Madaniyat bo'limi	14111100	3 082,5
14	Bulung'ur tuman Madaniyat bo'limi	24121100	762,9

15	Bulung'ur tuman Madaniyat bo'limi	44252110	256,0
16	Bulung'ur tuman Irrigatsiya bo'limi	14111100	860,0
17	Bulung'ur tuman Irrigatsiya bo'limi	44233900	41 070,0
18	Bulung'ur tuman Axborot-kutubxona markazi	44252110	1 542,0
19	Bulung'ur tuman Axborot-kutubxona markazi	44299990	293,3
20	Bulung'ur tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi	44354910	3 000,0
21	Bulung'ur tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi	44354920	10 000,0
22	Bulung'ur tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi	44354990	3 000,0
23	Bulung'ur tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi	44821180	43 808,0